

**ТЕРРОРИЗМ БИЛАН БОГЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР
ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЭТИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШНИНГ
ХУСУСИЯТЛАРИ**

Tashtemirov Anvar Aliqulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Ma'muriy huquq kafedrasini dotsenti. E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.

Умаров Алишер Фахриддин о'ғ'ли

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 317 guruh kursanti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada profilaktika inspektorining terrorizm bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari, bugungi kundagi holati va profilaktika inspektorlari tomonidan mazkur faoliyatni amalga oshirishda, mavjud muammo va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *terrorizm, ekstremizm, jinoyat, huquqbuzarlik, jihat, hujra, diniy ta'lim, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются особенности и специфические аспекты организационной и реализационной профилактики правонарушений, связанных с терроризмом, инспектором по профилактике, текущее состояние этой деятельности, а также существующие проблемы и предложения по их устранению при осуществлении данной деятельности профилактическими инспекторами.*

Ключевые слова: *терроризм, экстремизм, преступление, правонарушение, джихад, ячейка, религиозное образование, осуждённые лица, несовершеннолетние, норма законодательства.*

Annotation: *This article highlights the specific features and distinctive aspects of organizing and implementing the prevention of terrorism-related offenses by prevention inspectors, examines the current state of this activity, and presents existing problems along with proposals for their resolution in the course of implementing this work by prevention inspectors.*

Keywords: *terrorism, extremism, crime, offense, jihad, cell, religious education, convicted persons, minors, legal norm.*

Butun dunyo bo'ylab globallashuv jarayoni jadallashib borayotgan bir sharoitda insoniyat tor manfaatlarini ifodalaydigan diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm jinoyatlari hamda ularning mudxish hodisalariga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan ekstremizmning mazmuni va mohiyati to'g'risida fikr yuritilsa, o'ylaymizki, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ekstremizm mazmuniga ko'ra diniy va dunyoviy namoyon bo'lishiga ko'ra esa, hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Ekstremistlar qarashlari juda

chuqur ildizlarga ega bo'lib, ular hech qachon chegara bilmagan yoki din, millat yoxud biron bir mamlakat hududini tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ko'rinishlari mavjud bo'lsa, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan.

Diniy ekstremizmning asosiy xususiyatlaridan biri bu birinchidan, barcha dinlarda, masalan buddizm, xristianlik, islomdagi norasmiy oqimlarda uchrab turadi ikkinchidan, esa keskin choralarni qo'llashni, ba'zan zo'ravonlik harakatlarini sodir etishga moyilligi bilan ajralib turadi. Bunda muayyan shaxs ham boshqa dinga mansub ijtimoiy guruh ham yoki shu dinnig o'z vakillari tomonidan rad etilayotgan mazxabga mansub vakillari ham ta'sir ko'rsatish ob'ekti sifatida tanlab olinishi mumkin. Islom ekstremizmi islomning qadimgi g'oyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy, siyosiy harakat bo'lib, u diniy mutaassiblik, muayyan mazxab ta'limotini ko'r-ko'rona yoqlash oqibatida yuzaga keladi. Unga ko'ra, go'yo butun islom diniga e'tiqod qiladigan davlatlardagi musulmon jamoalari islomiy tusalarni yo'qotgan bo'lib, johiliya (islomgacha bo'lgan johillik davri) jamiyatga aylangan. Bunday yondashuv amaldagi hukumat va u olib borayotgan siyosatni tanqid qilishga asos qilib olinadi. Hokimiyatga kelish va "Islomiy tartib" ni qaror toptirishning yagona yo'li deb keskinlik va jangarilik yo'li bilan agressiv harakat qilishni hisoblaydilar.

Aslida esa islom ekstremizmi g'oyalarning Markaziy Osiyoga kirib kelishidan asosiy maqsad-dinni qayta tiklash emas, balki undan niqob sifatida foydalanib mintaqada beqarorlikni diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish iqtisodiyotni turli yo'llar bilan izdan chiqarish, u orqali hukumatni kuchsizlantirib obro'yini to'kishdan iboratligi bugun barchamizga ayon. Islom ekstremizmi o'zinig shunday g'arazli harakatlarida muqaddas dinimizning sof g'oyalarni "qurol" qilib, hokimiyatga intilishdan boshqa narsani ko'zlamaydi.

Hozirgi davrda ayrim islomiy guruhlarda diniy-siyosiy lashuv sodir bo'layotganligi sababli islom dinini ham isloh qilishga harakatlar bo'lmoqda. Buning mazmunini tushunish uchun islomda uchta asosiy diniy oqim mavjudligini bilish lozim. Ya'ni birinchi oqim tarafdorlari islomning siyosiy lashuviga qarshi bo'lib, dinning davlatdan ajratilganligini qo'llab quvvatlaydilar, axloq odob masalalari bilan birga islomda buyurilgan amallarni bajarish har bir musulmonning burchi deb hisoblaydilar. Ikkinchi oqim tarafdorlari har qanday yangilikka qarshi chiqib o'rta asrlarda qaror topgan diniy tartib qoidalarni qabul qilish va kishilarni shunga ko'nishga chorlaydilar. Islomni isloh qilishni maqsad qilgan uchunchi oqim esa "Islom fundamentalizimi" tarafdorlari bugungi zamonaviy turmush tarzi mavjud shart-sharoitlarga keskin qarshilik ko'rsatib butun musulmonlar jamoalarini islomning ilk davridagi shariat qonunlariga qaytarishga urinib keladilar. Buning uchun hamma shariat- qoidalariga so'zsiz amal qilishi lozim, zamonaviy taraqqiyot, milliy urf -odat va an'analar keskin inkor qilinadi.

So'ngi yillarda mutaassib oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini xorijiy mamlakatlardagi mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "internet" orqali targ'ibot o'tkazish, oila a'zolarini, yaqinlari va qo'shnilarini o'z guruhlariga tortish yashirin "xujralar" tashkil etish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni bosma, elektron ko'rinishda tarqatish kabi usullarda amlga oshirmoqda.

Mutaxassislarining fikricha hozirda 100 mingdan ziyod ekstremizmning ko'rinishlarini o'zida tashuvchi g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, xijrat, jihod shahidlik xalifalikni tiklash kabi g'oyalar singdirilib ular turli to'qnashuv va nizolar o'chog'iga jalb qilinmoqda.

Muayyan siyosiy kuchlarning nog'orasiga o'ynayotgan diniy ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u yerlarda amaliyotni o'tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan mustaqil fikrlamaydigan majruh rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilaridan mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorlikni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko'pchilikka ayon haqiqatdir.

XXI asrning muhim xususiyatlaridan biri insonlarning ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayishidir. Qonli urushlar, harbiy yurishlar, iqtisodiy iskanjaga olishlar o'rniga endi tobora ko'proq mafkuraviy vositalar va ma'naviy qurollar ishlatilmoqda, odamlarning tafakkuri, ongi dunyoqarashini egallashga urinish kuchayib bormoqda. Boshqa hudud va xalqlarni o'ziga qaram qilish uchun ochiqdan ochiq ko'rish va sezish qiyin bo'lgan vositalar, xususan ma'naviy buzg'unchilik uslublari qo'llanilmoqda.

Insoniyatning tarixida diniy ongning ajralmas qismi sifatida, ya'ni e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p.

Dunyoning turli burchaklarida terrorchilik harakatlarini uyushtirayotgan diniy mutaassiblar kimligini o'rganish shuni ko'rsatadiki, har qanday diniy manbalarni noto'g'ri talqin qilish mumkin.

Jamiyatda o'z hukmronligini o'rnatishdir. Diniy ekstremizm, aqidaparastlik mutaassiblik bir biriga qo'shilib ketgan tushunchalardir.

Diniy ekstremizm va mutaassiblik diniy fundamentalizmning negizida vujudga keladi. Diniy fundamentalizm muayyan diniy e'tiqod, tarixiy davr yoki birgina mintaqaga xos ijtimoiy hodisa emas, mazkur voqealik har qanday dinga xos xususiyat bo'lib, turli tarixiy davrlarda dinning ajralmas yo'ldoshi bo'lib kelgan.

O'zbekistonda terrorizmning oldini olishning huquqiy choralariga aksilterror qonunchilikni targ'ib qilish ham kiradi. Bu aksilterror vositalar ichidagi eng muhim vositalardan biridir. Keng ma'noda qonunchilikni targ'ib qilish deganda, fuqarolarni lozim tarzdagi yoki davlat istaydigan xulqda bo'lishga undash maqsadida ularga jinoyat qonunlari va boshqa qonunlar haqida ma'lumot berish hamda ularning adolatli ekanligiga ishonch hosil qildirish tushuniladi. Bizning fikrimizcha, bu «faoliyat

adresatlarning muayyan qismini jinoyatlar sodir etishdan tiyilish, zaruriy mudofaani qo'llash orqali jinoyatlarga chek qo'yish, huquqni qo'llovchi organlarga jinoyatchilikka qarshi kurash ishida yordam berish, boshlab qo'yilgan jinoyatlarni tugatishdan ixtiyoriy qaytish kabi harakatlarga unday oladigan umumprofilaktik va individual profilaktik choralar sifatida qo'llaniladi». Huquqiy targ'ibotning real mazmuni: operativ vaziyat talab qilayotgan vazifalarni belgilash; targ'ibot qaratilgan shaxslar (adresatlar) bilan aloqalarni ta'minlash; axborotni ular e'tiboriga yetkazish shakl va usullari kabilarni qamrab oladi, bu esa ko'pgina shart-sharoitlar, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qilish organlarining ixtiyoridagi kuch va vositalarga hamda ular xodimlarining kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu sohada ichki ishlar organlari, aftidan, katta hajmdagi ishlarni amalga oshirishlari kerak, chunki aholiga yetkaziladigan terrorizm haqidagi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining unga qarshi kurash faoliyati to'g'risidagi axborot ko'pincha uning xavfliligini ta'kidlash, ba'zan esa ochiqchasiga qo'rqitishdan iborat bo'lib qolmoqda. Shu narsa aniqki, terrorizmga qarshi kurashni huquqiy ta'minlash doirasida ayni vaqtning o'zida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi mazkur jinoiy hodisalardan xavfsizlikning umumdavlat tizimini yaratishga imkon beradigan bir qancha sohalar chatishib ketadi.

Tashkiliy va axborot-prognostik ta'minot. O'zbekiston ichida ham, MDH doirasida ham huquqni muhofaza qilish organlarining aksilterror faoliyatini yanada muvofiqlashtirish. Terrorizmning oldini olishning tashkiliy jihatlariga aksilterror faoliyat ishtirokchilarini aniqlash va quyidagi guruhlariga bo'lishni kiritish lozim:

1) umumiy profilaktika ishtirokchilari global ijtimoiy siyosat aksilterror jihatga ham egaligini inobatga olib, jamiyatdagi nizolar rivojlanishiga, odamlarning shafqatsizlashuvi, aholining asabiylashishi va shu kabilarga qarshi kurashish, ularga xilma-xil ijtimoiy institutlar kirishi;

2) maxsus profilaktika ishtirokchilari, jumladan, aksilterror targ'ibot, terrorchilik qilmishlarini tayyorlash va sodir etishga zamin yaratuvchi jarayonlarga qarshilik ko'rsatish, xususan terrorchilar uchun qiziqish uyg'otuvchi axborot, qurol-yarog' va juda xavfli materiallarni nazorat qilish, o'ta muhim rejimli ob'ektlarni qo'riqlash, aholini psixologik tayyorlash va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish, millatchilik, fundamentalistik muhitlarni nazorat qilish va barcha imkoniyatdagi darajalarda terrorchilik qilmishlariga bevosita chek qo'yish ishtirokchilari;

3) terrorchilarni adolatli jazolash va jazoni ijro etish ishtirokchilari. Ba'zi mualliflarning fikricha, bu ro'yxatga, avval vazifalari, huquq va majburiyatlari, resurs ta'minoti, hamkorlik yo'nalishlarini aniqlab, qurolli kuchlar va ularga tenglashtirilgan boshqa tuzilmalar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, qo'riqlash tuzilmalari, ommaviy axborot vositalarini ham kiritish lozim. Shu munosabat bilan, aksilterror faoliyat ishtirokchilarining urush paytida va jangovar vaziyatda yuqori darajada javobgarlikka ega bo'lishi masalasini ham hal qilish talab etiladi.

Aksilterror tizimini axborot-prognostik tanlash: terrorizm va uning oldini olishga qaratilgan faoliyatni monitoring qilishni; statistik hisoblarga idoraviy va davlatlararo

yondashuvni unifikatsiyalash, ya'ni bir xillashtirish; terrorizm ishtirokchilari va dalolatchilari, jabrlanuvchilar haqidagi statistik ma'lumotlar doirasini kengaytirish; yagona axborot jumladan, sud muhokamalarining natijalari haqidagi ma'lumotlar banki va axborot almashinuvi tartibini yaratish, terrorchilik qilmishlari va turdosh jinoiy qilmishlar haqidagi statistik hisobotlarni muvofiqlashtirish, terrorchilik qilmishlarining oqibatlarini, jumladan hayotga va sog'liqqa, davlat apparatining normal faoliyatiga, aholining tinchligiga tajovuzlardan yetkazilgan zararni baholash metodikalarini ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutadi.

To'liq axborot-bashorat ta'minot oldini olishning barcha bosqichlari va istisnosiz barcha darajalariga xalqaro, MDH doirasida, davlat ichida, idoralararo, idora ichida, shuningdek, vakolatlarni hamda federal va mahalliy darajadagi organlar hamkorligi mexanizmini ham aniq ajratish asosida idoralar kuchlarini birlashtirish jihatiga singib ketishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.

6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.

10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.